
«Eng yosh Mirzo Ulugʻbek vorisi» nominatsiyasi gʻolibi taqdirlandi

21 may kuni Innovatsion rivojlanish vazirligida Fargʻona viloyati Rishton tumanidagi 27-maktabning 5-sinf oʻquvchisi Sodirov Akmaljon oʻgʻli oʻqishda va turli xalqaro tanlovlarda erishgan yutuqlari, noyob qobiliyati uchun mukofotlandi. Innovatsion rivojlanish vazirligi xodimlari ishtirokida vazir, akademik Ibrohim Abdurahmonov Muhammadazizga muvaffaqiyatlarini yuqori baholab, bundanda katta yutuqlarga erishishiga ishonch bildirdi. Fargʻona viloyati Rishton tumanidagi 27-umumtaʼlim maktabining 5-sinf oʻquvchisi Sodirov Muhammadaziz Akmaljon oʻgʻli 6 yoshidan mental arifmetika musobaqalariga qatnashib faxrli oʻrinlarni egallab kelmoqda. 2018 yil Respublika bosqichida faxrli 1-oʻrinni egallab, Rossiya Federatsiyasi Moskva shahrida boʻlib oʻtgan 25-«Aloha» xalqaro mental arifmetika musoboqasida 35 davlatdan turli yoshdagi isteʼdodlar orasida faxrli 1-oʻrinni egallab chempion boʻldi. 2019 yil Toshkentda boʻlib oʻtgan musobaqada gʻoliblikni qoʻlga kiritdi va shu yili Xitoy davlatida 42 ta davlat oʻrtasida oʻtkazilgan musobaqada 3-oʻrin sohibi boʻlgan. 2021 yil ham Oʻzbekistonda kichik yoshdagi bolalar oʻrtasida oʻtkazilgan mental arifmetika musobaqasida chempion boʻlgan. Isteʼdodli yoshlarni qoʻllab-quvvatlash «Ulugʻbek» jamgʻarmasi tomonidan oʻtkazilayotgan «Mirzo Ulugʻbek vorislari» Respublika tanlovi komissiya aʼzolarining qaroriga muvofiq, Sodirov Muhammadaziz Akmaljon oʻgʻli "Eng yosh Mirzo Ulugʻbek vorisi" nominatsiyasiga loyiq topildi.

2022-05-22 10:24:31